

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

2021 yilning 1 iyul holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 47 283 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 3 1767 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 67,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (58,0 %), savdo (12,4 %), sanoat (8,4 %) va qurilish (4,7 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (2021 yil 1 iyul holatiga)

	<i>Ro‘yxatga olangan</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	47 283	100,0	31 767	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	27 449	58,0	12 994	40,9
sanoat	3 987	8,4	3 723	11,7
qurilish	2 206	4,7	2 119	6,7
savdo	5 845	12,4	5 492	17,3
tashish va saqlash	682	1,4	638	2,0
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 494	3,2	1 391	4,4
axborot va aloqa	270	0,6	249	0,8
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	310	0,7	304	0,9
boshqa faoliyat turlari	5 040	10,6	4 857	15,3

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilning 1 iyul holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 23 971 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 22 616 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 94,3 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (24,4 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (17,3 %), sanoat (16,6 %), va qurilish (9,2 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

**Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2021 yil 1 iyul holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>		<i>birlik</i>
Jami	23 971	100,0	22 616	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 137	17,3	3 843	17,0
sanoat	3 987	16,6	3 723	16,5
qurilish	2 206	9,2	2 119	9,4
savdo	5 845	24,4	5 492	24,3
tashish va saqlash	682	2,8	638	2,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 494	6,2	1 391	6,2
axborot va aloqa	270	1,1	249	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	310	1,3	304	1,3
boshqa faoliyat turlari	5 040	21,0	4 857	21,5

**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi**
(2021 yil 1 iyul holatiga, birlik)

	<i>2021 yil 1 iyul holatiga ro‘yxatga oltinganlar soni</i>	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-iyun oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil etilganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>

Jizzax viloyati	47 283	3 102	665
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 055	668	105
--------	-------	-----	-----

tumanlar:

Arnasoy	3 246	165	29
Baxmal	3 906	243	73
G‘allaorol	5 610	284	48
Sharof Rashidov	6 738	472	73
Do‘stlik	2 042	123	63
Zomin	4 518	312	39
Zarbdor	3 604	249	49
Zafarobod	2 276	92	23
Mirzacho‘l	2 259	123	45
Paxtakor	2 154	129	48
Forish	2 807	178	66
Yangiobod	1 068	64	4

2021 yil yanvar-iyun oylarida jami 3 102 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 3 028 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 668 tasi, yoki 21,5 %) hamda Sharof Rashidov (472 tasi, yoki 15,2 %) va G‘allaorol (284 tasi, yoki 9,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar

bo‘yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

	<i>2021 yil 1 iyul holatiga ro‘yxatga olanganlar</i>	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-iyun oylari davomida:</i>	
<i>yangi tashkil topganlar</i>			

Jizzax viloyati	23 971	2 518	565
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	6 956	668	105
--------	-------	-----	-----


tumanlar:

Arnasoy	794	73	26
Baxmal	1 452	190	68
G‘allaorol	2 016	251	48
Sharof Rashidov	3 738	389	54
Do‘stlik	1 007	104	50
Zomin	1 903	217	39
Zarbdor	1 159	128	45
Zafarobod	738	61	23
Mirzacho‘l	900	90	25
Paxtakor	1 049	113	22
Forish	1 690	178	56
Yangiobod	569	56	4

2021 yil yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 23 971 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 20 578 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 668 tasi, yoki 26,5 %), Sharof Rashidov (389 tasi, yoki 15,5 %) va G‘allaorol (251 tasi, yoki 10,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil 1 iyul holatiga – 20651 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 5 044 ta, oilaviy korxonalar – 1747 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 13 370 ta, aksionerlik jamiyatlari – 20 tani tashkil etdi.

**Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining
tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)**



2021 yil yanvar-iyun oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 2 518 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 2 444 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 668 tasi, yoki 26,5 %), Sharof Rashidov (389 tasi, yoki 15,5 %) va G‘allaorol (251 tasi, yoki 10,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 28,0 foizi savdo, 24,0 foizi qishloq va o‘rmon xo‘jaligi va 22,1 foizi sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 565 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2021 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 222 tani tashkil etdi.

2021 yilning 1 iyul holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 222 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 40 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 37 ta, Rossiya Federatsiyasi 24 ta, Amerika qo‘shma shtatlari 4 ta, Koreya Respublikasi 3 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 114 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 142 tasi qo‘shma korxonalar, 80 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil yanvar – iyul oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalar soni – 19 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta va boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 10 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2021 yil 1 iyul holatiga, birlikda)

	<i>2021 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni</i>	<i>shundan</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>

Jizzax viloyati	222	142	80
------------------------	------------	------------	-----------

shahar:

Jizzax	71	48	23
--------	----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	8	5	3
Baxmal	9	6	3
G'allaorol	23	15	8
Sharof Rashidov	20	12	8
Do'stlik	7	4	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	28	22	6
Yangiobod	13	7	6

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**
(2021 yil 1 iyul holatiga)


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	222	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	39	17,6
Sanoat	121	54,5
Qurilish	10	4,5
Savdo	29	13,1
Tashish va saqlash	6	2,7
Yashash va ovqatlanish	3	1,3
Axborot va aloqa	3	1,3
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	9	4,1

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 222 ta korxonaning 121 tasi (54,5 %) sanoat, 39 tasi (17,6 %) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 29 tasi (13,1 %) savdo, 10 tasi (4,5 %) qurilish, 6 tasi (2,7 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,3 %) yashash va ovqatlanish, 3 tasi (1,3 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 9 tasi (4,1 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar


2021 yil 1 iyul holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19 314 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2020 yil 1 iyul holatiga nisbatan 122,9 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5 793 tasi (30 %) Jizzax shahriga, 31 88 tasi (16,5 %) Sharof Rashidov, 1 628 tasi (8,4 %) G‘allaorol va 1 521 tasi (7,9 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 19 314 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 482 tasi (28,4 %) savdo, 3 795 tasi (19,7 foiz) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 3 688 tasi (19,1 %) sanoat, 2 114 tasi (10,9 %) qurilishda, 1 388 tasi (7,2 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 633 tasi (3,3 %) tashish va saqlash, 232 tasi (1,2 %) axborot va aloqa sohasi, 221 tasi (1,1 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek 1761 tasi (9,1 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, axborot va aloqa hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalariga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining
iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da**




2021 yilning yanvar–iyun oylarida 2 444 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2020 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 126,4 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (648 ta), Sharof Rashidov (387 ta), G’allaorol (245 ta) va Forish (174 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (54 ta), Zafarobod (58 ta), Arnasoy (70 ta) hamda Mirzacho‘l (89 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (705 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (597 ta), sanoat (553 ta), qurilish (150 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (129 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (26 ta), tashish va saqlash (31 ta) hamda axborot va aloqa (48 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021 yilning 1 iyul holatiga 1 747 tani tashkil etdi, ulardan 1565 tasi yoki 89,6 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning 676 tasi yoki 43,2 foizi sanoat, 305 tasi yoki 19,5 foizi savdo, 240 tasi yoki 15,3 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 235 tasi yoki 15,0 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9 tasi yoki 0,6 foizi axborot va aloqa, 8 tasi yoki 0,5 foizi qurilish, 5 tasi yoki 0,3 foizi sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1 tasi yoki 0,1 foizi tashish va saqlash hamda 86 tasi yoki 5,5 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xususiy korxonalar soni (2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2021 yil 1 iyul** holatiga ko'ra 5 044 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 338 taga yoki 107,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 646 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 314 taga yoki 107,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 215 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 27 taga yoki 88,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra 13 370 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 904 taga yoki 127,7 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 731 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 655 taga yoki 126,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 817 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 453 taga yoki 133,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

